

**QORAQALPOG‘ISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TIZIMINING
RIVOJLANISHI VA JOYLASHUVI XUSUSIYATLARI**
K.K.Uzakbaev – *geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
D.N.Turg‘anbaev – *talaba*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: aholiga xizmat ko‘rsatish, maktabgacha ta‘lim, bolalar soni, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, xizmat ko‘rsatish radiusi, shaharsozlik normalari va qoidalari.

Ключевые слова: обслуживания населения, дошкольное образование, количество детей, дошкольные образовательные организации, радиус обслуживания, градостроительные нормы и правила.

Key words: public services, preschool education, number of children, preschool educational organizations, service radius, urban planning norms and rules.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi”, deyilgan [1].

2023-2024-o‘quv yili boshida Qoraqalpog‘istonda 752 ta umumta‘lim muassasalari (3 tasi nodavlat, Nukus shahrida 1 ta, Nukus tumanida 1 ta va To‘rtko‘l tumanida 1 ta) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning umumiy soni oldingi o‘quv yiliga nisbatan 6 taga ko‘paygan. Mustaqillikning dastlabki yillarida, aniqrog‘i 1990-1991-o‘quv yilida respublikada umumta‘lim muassasalari soni 692 ta bo‘lgan. Demak, o‘tgan 33 yil mobaynida ularning soni 60 taga, yoki yiliga deyarli 2 taga ko‘paygan.

Asosiy qism. Eng ko‘p umumta‘lim muassasalari Amudaryo (86 ta), Ellikqal’a (75 ta), Beruniy (72 ta) va To‘rtko‘l (69 ta) tumanlarida joylashgan. Poytaxt Nukus shahrida ularning soni 64 ta. Qo‘ng‘irotda 50 ta, Chimboy tumanida esa 49 ta umumta‘lim muassasalari faoliyat yuritgan. Bo‘zatov tumanida 15 ta, Mo‘ynoq tumanida esa ularning soni 18 tani tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumta‘lim muassasalarining soni (o‘quv yili boshiga, birlik)

	2010/ 2011	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
Qoraqalpog‘iston	754	733	734	746	752
Nukus sh.	51	58	58	60	64
tumanlar:					
Amudaryo	88	87	86	86	86
Beruniy	67	72	72	72	72
Bo‘zatov		15	15	15	15
Ellikqal’a	72	73	73	73	75
Kegeyli	55	38	38	39	39
Mo‘ynoq	19	17	18	18	18
Nukus	32	31	32	33	33
Qonliko‘l	24	23	23	24	24
Qorao‘zak	32	33	33	33	33
Qo‘ng‘irotda	57	49	49	50	50
Taxiatosh	10	22	22	23	23
Taxtakopir	24	23	23	24	24
To‘rtko‘l	63	67	67	69	69
Xo‘jayli	71	44	44	44	45
Shumanay	31	33	33	34	33
Chimboy	58	48	48	49	49

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlil qilinayotgan o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston umumta‘lim maktablarining 17,7 % i bir smenada, 81,9 % i ikki smenada va 0,4 % uch smenada faoliyat olib borgan (2-jadval).

Respublikada umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 326,5 ming nafarni tashkil qilgan holda, bitta maktabga o‘rta hisobda 438 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Ayni paytda, Nukus shahri maktablarida 64,6 mingta o‘quvchilar bo‘lib, shaharda bitta maktabga o‘rtacha 1009 ta o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Beruniy, Qo‘ng‘irotda, Taxiatosh, To‘rtko‘l va Xo‘jayli tumanlarida har umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotiga o‘rtacha 500 nafardan ortiq o‘quvchi mos keladi. Bo‘zatov va Shumanay tumanlarida 200-235 o‘quvchidan to‘g‘ri keladi. Nodavlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida jami 358 ta o‘quvchi tahsil olgan.

2-jadval. 2023-2024-o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga qarashli umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilar ta‘lim olishlarining navbatliligi (smennost) haqida ma‘lumot (2023 yil sentyabr holati)

T/ r	Hudud nomi	Jami mak- tablar soni	maktablar soni		Jami sinflar soni
			I nav- bat	II nav- bat	
	JAMI	722	120	602	16 562
1	Nukus sh.	55	3	52	2 559
2	Amudaryo	85	17	68	1 706
3	Beruniy	71	14	57	1 714
4	Bo‘zatov	14	5	9	196
5	Ellikqal’a	71	6	65	1 412
6	Kegeyli	38	10	28	674
7	Mo‘ynoq	17	4	13	299
8	Nukus	31	6	25	572
9	Qonliko‘l	23	3	20	411
10	Qorao‘zak	32	8	24	495
11	Qo‘ng‘irotda	49	3	46	1 270
12	Taxiatosh	22	2	20	582
13	Taxtakopir	23	1	22	401
14	To‘rtko‘l	67	11	56	1 733
15	Xo‘jayli	44	7	37	1 146
16	Shumanay	32	9	23	440
17	Chimboy	48	11	37	952


2-jadval davomi

T/r	Hudud nomi	sinf soni		Jami o'quvchilar soni	o'quvchilar soni	
		I NAVBAT	II NAVBAT		I NAVBAT	II NAVBAT
JAMI		10 132	6 430	362 578	210 200	152 378
1	Nukush.	1 419	1 140	63 956	34 686	29 270
2	Amudaryo	1 077	629	38 813	24 191	14 622
3	Beruniy	1 071	643	40 072	23 953	16 119
4	Bo'zatov	141	55	2 875	2 042	833
5	Ellikqal'a	845	567	32 410	19 138	13 272
6	Kegeyli	455	219	12 662	7 820	4 842
7	Mo'ynoq	206	93	5 226	3 616	1 610
8	Nukus	383	189	11 162	7 168	3 994
9	Qonliko'l	255	156	8 862	5 269	3 593
10	Qora-o'zak	338	157	8 447	5 455	2 992
11	Qo'ng'irotda	725	545	25 052	13 894	11 158
12	Taxiatosh	339	243	12 420	7 164	5 256
13	Taxtakopir	253	148	6 922	209	6 713
14	To'rtko'l	1 039	694	42 969	24 998	17 971
15	Xo'jayli	667	479	23 262	12 966	10 296
16	Shumanay	318	122	7 529	5 315	2 214
17	Chimboy	601	351	19 939	12 316	7 623

Umumiy o'rta ta'lim tizimi haqli ravishda ta'lim turlarining eng ommaviysi hisoblanadi. Shu bois, uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratiladi. Umumta'lim muassasalari faoliyatining sifat jihatlariga ularning sig'im darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni maktablarning sig'im ko'effitsiyenti, ya'ni ta'lim olayotgan o'quvchilarning ulardagi o'quvchi o'rinlariga nisbati yaxshi aks ettiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy ma'lumotlariga binoan, mintaqada 2023–2024-o'quv yili boshi holatiga ko'ra, jami maktablarning salkam 48 foizida sig'im ko'effitsiyenti 1,0 ga yetmagan, jumladan, 25,2 foiz maktablarda bu ko'rsatkich 0,7 dan past. Ayni damda, 27 foiz maktablarda sig'im ko'effitsiyenti 1,1-1,4 oralig'ida, 17,7 foiz maktablarda – 1,5-1,9 oralig'ida, 7,3 foiz maktablarda esa bu ko'rsatkich 2,0 va undan kattadir. Ta'kidlash lozimki, sig'im ko'effitsiyentining yuqoriligi, bir tomondan, tegishli maktabning aholi orasida yuqori baholanayotganligi va u yerda farzandlari ta'lim olish istagini bildirayotgan ota-onalarning ko'pligini ifoda etsa, boshqa tomondan, muassasa infratuzilmasining barqarorligi, pedagog kadrlar bilan ta'minlanishi va oxirgi oqibatda, ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hududlar kesimida qaranganda, ko'rilayotgan vaziyat, albatta, bir xil emas. Xususan, sig'im ko'effitsiyenti 1,0 dan

oshmagan maktablar Bo'zatov, Qora'o'zak va Taxtakopir tumanlarida jami maktablarning 86-96 foizini tashkil etadi, xattoki Taxtakopir tumanida 74 foiz maktabda sig'im ko'effitsiyenti 0,7 dan pastdir. Bu holat, albatta, respublika shimoliy tumanlarining qishloq joylaridagi aholi soni kamligi va uning sust darajadagi dinamikasi bilan izohlanadi. Sig'im ko'effitsiyenti 1,0 va undan past darajada bo'lgan maktablar, shuningdek, Shumanay (75 %), Mo'ynoq (70,6 %), Qonliko'l (69,6 %), Taxiato'sh (63,6 %), Kegeyli (63,2 %), Chimboy (62,5 %), Nukus tumani (58,1 %), Xo'jayli (52,3 %) tumanlarida jami maktablarning 50-75 foiz qismini tashkil etadi. Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l va Qo'ng'irotda tumanlarida sig'im ko'effitsiyenti yuqori bo'lgan maktablar ancha ko'p. Jumladan, sig'im ko'effitsiyenti 1,1-1,4 oralig'ida bo'lgan maktablarning ulushi Qo'ng'irotda 26,5 %, Ellikqal'ada 31 %, To'rtko'l'da 32,8 %, Amudaryo tumanida esa 42,4 % ga teng. 1,5-1,9 ko'effitsiyentli sig'iga ega bo'lgan maktablar ulushi Amudaryoda 22,4 %, Beruniyda 25,4 %, Qo'ng'irotda 22,4 %, Ellikqal'ada 26,8 %, To'rtko'l'da esa 28,4 % ga teng. Sig'imi o'rnatilgan quvvatidan 2 barobar va undan ortiq darajada ko'p bo'lgan maktablar ulushi Beruniyda 11,7 %, Ellikqal'ada 12,7 %, To'rtko'l'da esa 14,9 % ni tashkil etadi. Nukus shahrida esa 16,4 foiz maktabda sig'im ko'effitsiyenti 1,0 dan ortmaydi, 43,6 foiz maktablarda 1,1-1,4 oralig'ida, 21,8 foiz maktablarda 1,5-1,9 oralig'ida, 18,2 foiz maktablarda esa 2,0 va undan yuqori qiymatlarga ega. Demak, aholi soni va zichligi birmuncha yuqori bo'lgan janubiy tumanlar hamda Nukus shahrida ko'plab maktablarning sig'imi juda yuqori ko'rsatkichlarga ega va bu holat tegishli hududlarda yangi maktab binolarini qurishni, o'quvchi o'rinlarini keskin ko'paytirishni taqozo etadi.



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o'quvchilarisiz, 2023–2024-o'quv yili boshiga, foizda)

Rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishida vaziyat quyidagicha: Jami o'quvchilarning 35,6 % (129,2 ming nafar) qoraqalpog' tilida, 43,5 % (157,9 ming nafar) o'zbek tilida, 12,6 % (45,9 ming nafar) rus tilida, 5,4 % (19,7 ming nafar) qozoq tilida va 2,9 % (10,6 ming nafar) turkman tilida tahsil olgan (1-rasm).

Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarida o'zbek sinflarida tahsil oladigan o'quvchilar ulushi boshqa tillarda ta'lim oluvchilar ulushiga nisbatan ancha katta.

Taxiatosh tumanida ham o'zbek tili umumta'lim tizimida eng keng tarqalgan ta'lim tili hisoblanadi. Xo'jayli va Qo'ng'irotda qoraqalpoq tilida tahsil oluvchilar son jihatdan birmuncha darajada ustunlikka ega bo'lsa, qolgan barcha tumanlarda hamda Nukus shahrida qoraqalpoq tilida ta'lim oluvchi o'quvchilar ulushi katta ustunlikka ega. Bunday tafovutlar, umuman olganda, ma'muriy birliklar aholisining etnik tarkibi bilan hamohangdir.

Boshqa ta'lim tillaridan rus tilida ta'lim oluvchilar soni, asosan, Nukus shahri, Xo'jayli, Qo'ng'irotda, Chimboy va Taxiatoshda, qozoq tilida o'qiydiganlar soni Qo'ng'irotda, Beruniy, Taxtakopir, Xo'jayli, Mo'ynoq, Taxiatosh tumanlari va Nukus shahrida, turkman tilida tahsil oluvchi o'quvchilar soni esa To'rtko'l tumanida eng ko'pdir (2-rasm).

Ko'rilayotgan o'quv yilida o'quvchilarga 38,2 ming o'qituvchilar saboq berishgan. Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida 23 nafar o'qituvchi faoliyat olib borgan. Jami o'qituvchilarning 93,7 % (35,7 mingtasi) oliy ma'lumotli. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning (o'rindoshlarsiz) 73,9 % ayollar tashkil qiladi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik normalari va qoidalari bo'yicha qishloq joylarda boshlang'ich maktablar 30 daqiqa ichida piyoda yetib olish mumkin bo'lgan joyda, (imkon qadar bolalar bog'chalari-yasillari bilan birga), 500-750 metr oraliqda, asosiy maktablar 30 daqiqa ichida transportda yetib olish mumkin bo'lgan joyda, 750-2000 metr oraliqda joylashtirish nazarda tutilgan.

Adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son).
2. ШНК 2.07.04-2019 Қишлоқ хўжалиги корхоналари ҳудудларини меъморий режалаштириш ва ташкил қилиш. Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги. –Тошкент: 2020.
3. Qurbonov Sh.B., Uzakbaev K.K., Atabayev A.A. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalalari // Fan va jamiyat» jurnali. –Nukus: 2024. 39-42-b.
4. Узакбаев К.К. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳаларини ҳудудий ташкиллаштириш. //Educational Research in Universal Sciences. 2023. Т. 2. №. 14. -С. 233-240.

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida maktab ta'lim tizimining tashkillashtirilishi, hududiy joylashuv xususiyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрыта организация системы школьного образования в Республике Каракалпакстан, особенности территориального размещения.

SUMMARY. The article describes the organization and distribution of the school education system in the Republic of Karakalpakstan.

Bizning tahlillar bo'yicha Amudaryo tumanidagi Qilichboy OFY da joylashgan maktablarning o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi 1,9 km, Taxiatosh tumani Keneges OFY da joylashgan maktablarning o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi 3,2 km, Bo'zatov tumani Erkindaryo OFY da joylashgan maktablarning o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi 4,2 km, Kegeyli tumani Ko'ko'zak OFY da joylashgan maktablarning o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusi 8,0 km ni tashkil etgan. Bu tahlillardan ma'lumki, o'quvchilarning maktabga qatnash masofasi ko'rsatilgan normalardan ancha yuqori.



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim muassasalari kartasi

Karta Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.